

ILDIZIDAN TASHQARI QO‘SHIMCHA OZIQLANTIRISHNING QATTIQ BUG‘DOY “ZILOL” NAVI 1000 DONA DON VAZNIGA TA’SIRI

Shermurodov Sardor Zokir o‘g‘li, doktorant,
Jo‘rayev Diyor Turdiqulovich, q/x.f.d., professor,
Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti.

Annotatsiya. Navlarning biologik xususiyatlari va har bir muayyan tuproq-iqlim xususiyatlarini hisobga olgan holda qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish va joriy etish dolzarb masala hisoblanadi. Qattiq bug‘doyning “Zilol” naviga N180P90K60 kg/ga me‘yorda mineral o‘g‘itlar bilan birgalikda qo‘shimcha ravishda ildizidan tashqari temir tarkibli o‘g‘itlar bilan oziqlantirish o‘g‘it suspenziyasi me‘yorlariga bog‘liq holda 1000 ta don massasini 7,1-10,3 g oshirishni ta‘minladi. Bug‘doyning o‘svuv davrida tuplash, naychalash, boshqoqlash davrlarda ildizidan tashqari qo‘shimcha TUD mikroo‘g‘iti bilan birgalikda qo‘shimcha oziqlantirilgan variantda boshqa variantlarga nisbatan sezilarli ijobiy ta‘sir kuzatiladi.

Kalit so‘zlar: Zilol, tuplash naychalash, boshqoqlash, entomicro, TUD, 1000 dona don og‘irligi

Аннотация. Разработка и внедрение технологии выращивания сельскохозяйственных культур с учетом биологических особенностей сортов и конкретных почвенно-климатических особенностей является актуальным вопросом. Подкормка твердая пшеницы сорта “zilol” минеральными удобрениями из расчета N180P90K60 кг/га и дополнительно внекорневой мочевиной в зависимости от концентрации туковой суспензии и обеспечил увеличение массы 1000 зерен на 7,1-10,3 г. В период роста пшеницы, в период кущения, выметывания и колошения вариант дополнительной некорневой подкормки дополнительным микроудобрением TUD имеет существенный положительный эффект по сравнению с другими вариантами.

Ключевые слова: Зиллол, кушение, срацивание, колошение, entomicro, TUD, вес 1000 зерен

Abstract. The development and implementation of technology for growing crops, taking into account the biological characteristics of varieties and specific soil and climatic characteristics, is a topical issue. Feeding soft wheat of the Zilol variety with mineral fertilizers at the rate of N180P90K60 kg/ha and additionally foliar urea, depending on the concentration of the fertilizer suspension, a weight per 1000 grains of 7,1-10,3 provided the increase. During the period of wheat growth, during the period of tillering, stem elongation and heading, the option of additional foliar feeding with additional microfertilizer TUD has a significant positive effect compared to other options.

Keywords: Zilol, tillering, jointing, heading, entomicro, TUD, 1000 grain weight

Kirish. Qishloq xo‘jaligi ekinlari orasida bug‘doy eng muhim oziq-ovqat ekinini hisoblanadi. Dunyo aholisini iste‘mol ratsionining asosiy qismini don va don mahsulotlari tashkil etadi. Ayniqsa, qattiq bug‘doy (triticum durum) makaron va qandolat sanoatining eng muhim xomashyosi bo‘lganligi bois uning don hosilini yetishtirishga talab kundan kunga oshib bormoqda. Hozirgi kunda respublikada qattiq bug‘doy doniga bo‘lgan ehtiyoj yetarli darajada qondirilmayapti. Shuning uchun sug‘oriladigan yerlardan samarali foydalanib, yetishtirilayotgan qattiq bug‘doy hosildorligini oshirish, ichki va tashqi bozorning qattiq bug‘doy doniga bo‘lgan ehtiyojning yuqoriligini hisobga olib, sug‘oriladigan maydonlar uchun qattiq bug‘doyning yangi navlarini yaratish, ularning biologik xususiyatlari, tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda ilmiy asoslangan yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat va konditer mahsulotlari, ayniqsa sifatli makaronturlari bilan ta‘minlashda, parhez taomlari va bolalar uchun oqsilga boy yormalar ishlab chiqarish uchun yiliga 120-150 ming tonnaga yaqin qattiq bug‘doy doni talab etiladi. Ayni vaqtda bunday miqdordagi donning asosiy qismi xorijdan sotib olinadi. Tabiiyki yetishmagan xom ashyoning o‘rni esa yumshoq bug‘doy doni hisobiga qoplanmoqda. O‘zbekistonda sifatli qattiq bug‘doy doni

yetishtirishga sug‘oriladigan yerlarning tabiiy-iqlim sharoiti qulay hisoblanadi. Respublika miqyosida qattiq bug‘doy urug‘chiligiga yetarli e‘tibor berilmayotganligi uning ilmiy asoslangan yetishtirish agrotexnologiyasi ishlab chiqilmaganligi sababli respublikamizda rivojlanib borayotgan makaron va konditer sanoatining qattiq bug‘doy doniga bo‘lgan talabini to‘lig‘icha ta‘minlay olmayapti. Mamlakatimizda qattiq bug‘doy maydonlarini yanada kengaytirish, hosildorligini oshirish, yuqori sifat ko‘rsatkichlarga ega don yetishtirishni ta‘minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi [1].

Erta bahorda tuproq tarkibidagi oziq moddalar miqdorini kamayib ketishidan tashqari o‘simlik nozik holda qishdan chiqadi va oziq moddalarga talabi juda yuqori bo‘ladi. Erta bahorda oziqlantirish esa ko‘chat qalinligini barqarorlashtiradi hamda o‘simlikda tuplanish jarayoni jadallashadi, 1m² 700-800 donagacha poya hosil qilishga erishish mumkinligi qayd etilgan. Erta bahorda oziqlantirish hisobiga 1 gektar yerdan 4-6 s/ga qo‘shimcha hosil olish mumkin [2].

B.Azizov va A.Qurbonovlar olib borgan izlanishlarda, kuzgi bug‘doy navlarining boshqoqlash fazasida 7-10% karbamidli eritma bilan oziqlantirilganda don hosildorligi 2-2,5 s/ga ortishi aniqlangan [3]. F.Toshkentboyevaning ma‘lumotlarida keltirilishicha kuzgi yumshoq bug‘doyning “Jasmina” navini ma‘danli o‘g‘itlar bilan

birga qo'shimcha mikroo'g'itlarning turli me'yorlari va nisbatlari bilan suspenziya ishlari amalga oshirilganida hosildorlik va 1000 ta don massasining ortishi hamda don naturasi boshqa variantlarga nisbatan yuqori bo'lishi to'g'risidagi ma'lumotlar qayd qilingan [4].


Mamlakatimizda kuzgi qattiq bug'doyni asosiy oziqlantirish bilan birga o'simliklarni temir tarkibli biostimulyatorlar suspenziyasi bilan birgalikda oziqlantirishning kuzgi qattiq bug'doy hosildorligiga va don sifatiga ta'siri o'rganilmaganligi tadqiqotlarimizni o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqotlarimiz 2023-2025 yillarda Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot tajriba agrouchastkasida olib borildi. Tajriba maydoni 3 yarusli qilib joylashtirildi.

Tadqiqot ob'ekti bo'lib, kuzgi yumshoq bug'doyning O'zbekiston Davlat reestriga kiritilgan "Zilol" navi xizmat qildi. Kuzgi qattiq bug'doy navlarining urug'lik paykallarda qo'llaniladigan agrotexnik va tashkiliy tadbirlar, o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi, don hamda urug'lik sifatlariga ta'siri tadqiqot predmeti bo'lib xizmat qildi. Tajriba ishlarida kuzatish, hisoblash va tahlillar "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (O'zPITI, 2014), fenologik kuzatuvlar va biometrik o'lchovlar Qishloq xo'jalik ekinlari navlarini davlat nav sinash markazi uslubi bo'yicha Respublika davlat urug' nazorat markazi tavsiyalari qo'llanmalari va usullari (1985; 1989) bo'yicha o'tkazildi. Tajribadagi kuzgi bug'doyning hosil strukturasi aniqlashda 1000 ta donning massasi, 1 m² maydondan olingan don va don chiqimi, donning ifloslanish darajasi shishasimonligi va natura og'irligi GOST 9353-84 bo'yicha, hosildorlik dondagi namlik standart (14%) holatiga keltirilib aniqlandi. Olingan hosildorlik ko'rsatkichlarining aniqligi B.A.Dospexovning dispersion usulida (1979) aniqlandi.


Tadqiqotlarimizda umumqabul qilingan mineral o'g'it me'yorlari bilan birgalikda ildizdan tashqari temir tarkibli o'g'itlar bilan birgalikda TUD biostimulyatori bilan (6; 9; 12 g/l) me'yordagi suspenziyalari bilan qo'shimcha oziqlantirilganda "Zilol" navining don sifat ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi.

Uch yillik tadqiqotlar natijalari tahlillariga ko'ra, kuzgi qattiq bug'doy zilol naviga entomicro va TUD biostimulyatorlari bilan ishlov berilganda 1000 dona don og'irligi 33.1-43.4 g gacha bo'lganligi kuzatildi. Shunga ko'ra, nazorat (o'g'itsiz) variantda 1000 dona don og'irligi 33.1 g ni, umumqabul qilingan ma'dani o'g'itlar qo'llanilgan variantda 38.2 g ni, tashkil qilganligi kuzatildi, unga qo'shimcha ravishda entomicro biostimulyatori bilan ishlov berilganida 1.0 kg/ga qo'llanilgan variantlarda 40.2-41.5 g, 1.5 kg/ga 41.1-43.4 g ni, 2.0 kg/ga 41.1-41.5 g ni tashkil etganligi kuzatildi, suspenziya me'yoriga bog'liq ravishda nazorat (o'g'itsiz) variantga (33.1g) nisbatan 7.1-8.4 g; 8.0-10.3 g; 8.0-8.4 g ga yuqori bo'lganligi aniqlandi.



1-rasm. Qattiq bug'doy zilol navi 1000 dona don og'irligi

Taqqoslashlar, kuzgi qattiq bug'doy zilol naviga TUD biostimulyatori bilan olib borilganda ham yuqoridagi kabi tendensiya qayd qilingani ma'lum bo'ldi. Bunda, kuzgi qattiq bug'doy zilol naviga TUD biostimulyatorlari qo'llanilgan variantlar nazorat (suspenziya qo'llanilmagan) variantga nisbatan 7.2-8.5 g; 7.7-9.9 g; 7.1-8.4 g ga yuqori bo'lganligi kuzatildi.



2-rasm. Qattiq bug'doy zilol navi 1000 dona don og'irligi

Tadqiqotlarda, entomicro va TUD biostimulyatori bilan oziqlantirilganida eng yuqori ko'rsatkich naychalash fazasida entomicro 1.5 kg/ga va TUD 9 g/l qo'llanilgan 7 va 16-variantlarda 43.4-43.0 g ni tashkil qilganligi qayd qilindi.

Xulosa. Olingan natijalar Qashqadaryo viloyati och tusli bo'z tuproqlar sharoitida o'simliklarni odatdagi usulda tavsiya etilgan N₁₈₀P₉₀K₆₀ kg/ga me'yorida oziqlantirishga qo'shimcha ravishda o'suv davrida ildizdan tashqari temir tarkibli mikroo'g'itlar suspenziyalarni qo'llash kuzgi qattiq bug'doyning zilol navi 1000 dona don og'irligiga sezilarli darajada oshirish imkoniyatini yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. Qarshiboev H., Mavlanov J. Lalmikor maydonlarda qattiq bug'doy yetishtirish bo'yicha tavsiyalar, T. "Tafakkur" nashriyoti, 32b.
2. Халилов.Н., Бобомизаев.П.Х., Турсунов Ш.Н., Халилова. Л.Н., Тураев.У.Ў. "Донли экинларнинг етиштириш сама радорлигини ошириш йўллари". Монография. Самарқанд, 2021. 86-б.
3. Азизов. Б., Курбанов. А., "Урожайность и посевные качества зерна озимой пшеницы при разных нормах посева" // "Agrom ilm" Toshkent, 2010, №3, 16-17-б.
4. Тошкентбоева. Ф. И. "Озиклантириш меъёри ва усулининг кuzги юмшоқ буғдой навлари уруғлик ва экинбоплик сифатларига таъсири". Иқлим ўзгариши шароитида лалми майдонлар учун қурғоқчиликка чидамли экин навларини яратиш ва етиштириш агротехнологияси республика илмий-амалий анжумани илмий мақолалар тўплами. 30 май 2022 йил. 254-256-б.